

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Shernazarov, X.Jamolova	
“BOBURNOMA”ning forscha misralari	91
S.Halimov	
E.A.Poning hikoyalarida ijtimoiy davr va falsafiy mushohadakorlik dialektikasi	95
	TILSHUNOSLIK
Z.Akbarova, M.Buvajonova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun elektron o'quv lug'atlarini yaratishning zarurati xususida.....	100
G.Davlyatova	
Ritorikani (notiqlik) nutq san'ati sifatida o'rganish.....	103
B.To'rayeva	
Xronotop poetikasining o'ziga xos xususiyatlari	107
Z.Alimova, S.Gafurova	
“SADOI TURKISTON” gazetasi va undagi bir maqola xususida	114
G.Raximova	
Ingliz reduplikativ elementlarning funksional semantikasiga oid lingvistik qarashlar	120
J.Ibragimov	
Jahon tilshunosligida <i>collocation</i> atamasi va uning tadqiqi	123
N.Xasanboyeva	
Zamonaviy fransuz tilida so'roq gaplar semantikasi va funksional xususiyatlari	127
D.Ganiyeva, D.Ismoilova	
Struktur tilshunoslikning nazariy asoslari	130
M.Qurbonova	
O'zbek tilshunosligida okkazonal birliklar tadqiqi	134
L.Masharipova	
Til va madaniyat	139
Sh.Jumaqulova	
O'zbek tilida “xursandchilik” etimonlari qo'llanilgan frazeologik birliklar ifodalanishi	144
X.Maripova	
Nemis tilidagi harbiy frazeologik birliklarining sotsiopragmatik xususiyatlari	147
A.Mattiyev	
Ravish tasnifiga doir yondashuvlar	151
A.Yuldashev	
So'z ma'nosi xususida.....	154
D.Gaziyeva	
Funksional va stilistik jihatdan media tili	159
U.Yokubbayeva	
“Yangi O'zbekiston strategiyasi” kitobida qo'llangan “ <i>yashil</i> ” leksemasining semantik takomili.....	164
N.Umarova, M.Abdulimova	
Alisher Navoiy she'riyatida o'xshatish qurilmalari	170
	MATEMATIKA
A.Xasanov, I.Jalilov	
$F_{0;3;3}^{2;2;2} [x, y]$ gipergeometrik funksiya uchun integral ko'rinishlar va bu funksiyaning qanoatlantiruvchi gipergeometrik tipdagi differensial tenglamalar sistemasi	173
D.Usmonov, A.Urinov	
Soha chegarasining barcha qismida buziladigan to'rtinchi tartibli tenglama uchun chegaraviy masalalar	185
	FIZIKA – TEXNIKA
M.Maxmudova, Sh.Shuxratov	
Frezer stanoklarida metallarga ishlov berish texnologiyalari va uning innovatsion usulda o'qitilishi.....	193

**E.A.PONING HIKOYALARIDA IJTIMOY DAVR VA FALSAFIY MUSHOHADAKORLIK
DIALEKTIKASI**

**ДИАЛЕКТИКА СОЦИАЛЬНОГО ПЕРИОДА И ФИЛОСОФСКОЕ НАБЛЮДЕНИЕ В
РАССКАЗАХ Э.А.ПО**

**DIALECTIC OF SOCIAL PERIOD AND PHILOSOPHICAL OBSERVATION IN
E.A.POE'S STORIES**

Halimov Salohiddin Samiyevich¹

¹Halimov Salohiddin Samiyevich

– Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada jahon badiiy adabiyotida sarguzasht (detektiv) janrining mashhur asoschisi amerikalik yozuvchi, shoir, munaqqid va muharrir Edgar Allan Poning "Sukunat", "Qizil ajal niqobi" hikoyalarida o'zi yashab turgan ijtimoiy muhitning badiiy talqinlari tahlilga tortilgan. Adib hikoyalarida inson erki va ma'naviyati uchun kurash, ruhiy olam manzaralarini jozibador uslublarda bera olish, fantastik realizm, sarguzashtlilik poetikasidagi izlanishlari qiyosiy tahlillar orqali yoritib berilgan.

Аннотация

В статье анализируются художественные интерпретации социальной среды, в которой он жил, в рассказах «Молчание» и «Маска красной смерти» американского писателя, поэта, критика и редактора Эдгара Аллана По, известного основоположника авантюрного (детектив) жанр в мировой художественной литературе. В рассказах писателя посредством сравнительного анализа освещаются борьба за волю и духовность человека, умение красиво представить сцены духовного мира, фантастический реализм, поэтика авантюризма.

Abstract

The article analyzes the artistic interpretations of the social environment in which he lived in the stories "Silence" and "The Mask of the Red Death" by the American writer, poet, critic and editor Edgar Allan Poe, the famous founder of the adventure (detective) genre in world fiction. In the stories of the writer, the struggle for human will and spirituality, the ability to present the scenes of the spiritual world in attractive ways, fantastic realism, and the poetics of adventure are highlighted through comparative analysis.

Kalit so'zlar: Hikoya, sarguzasht, dramatik obraz, romantik hodisa, psixologik holat, ijtimoiy muhit, magik realizm, sarguzasht, xayoliy-fantaziya, mistika.

Ключевые слова: Рассказ, приключение, драматический образ, романтическое событие, психологическое состояние, социальная среда, магический реализм, авантюра, фантазия воображения, мистика.

Key words: Story, adventure, dramatic image, romantic event, psychological state, social environment, magical realism, adventure, imagination fantasy, mysticism.

KIRISH. Edgar Allan Po (1809-1849) - Amerika tanqidiy realizmi va romantizmning yirik vakili bo'lgan yozuvchi, adabiyotshunos, adabiy tanqidchi va san'at nazariyotchisi hisoblanadi. Uning asardarida inson erki va ma'naviyati uchun kurash, ruhiy olam manzaralari jozibador uslublarda namoyon bo'ladi. Adibning fantastik realizm, sarguzashtlilik poetikasidagi izlanishlari asarlariga jozibadorlik va o'ziga xoslik baxsh etgan.

Edgar Allan Poning adabiy salohiyati, notakror badiiy mahorati eng avvalo hikoya janridagi asarlarida namoyon bo'lgan edi. Bunda adibga psixologik tahlil, mubolag'a, majoz, intellektuallik, badiiy san'atlar, sirli-g'aroyiblik bilan bog'liq san'atkorlik vositalari yaqindan yordam bergan. Bu kabi badiiylik unsurlaridan puxta foydalana olish dramatik obrazlarni, tragik obrazlarni, ijtimoiy davr muammolarini falsafiy mushohada qilish, dolzarb masalalarni yechish yo'lida eng ta'sirchanlik ahamiyatiga ega bo'lgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

"E.A.Po Amerika romantizmini yuqori cho'qqiga ko'targan, detektiv adabiyotni, psixologik mahorat va magik realizm uslubini asoslagan yetuk nosir, ta'sirchan adabiy tanqidchi sifatida munosib adabiy obro' sohibidir" [1,416]. O'zbek adabiyotshunoligida E.A.Po ijodini o'rganish o'tgan

asrning 20-30- yillarida boshlangan edi. Bu o'rganish ikki ko'rinishda amalga oshirildi. Ya'ni E.A.Po asarlarining tarjimalari hamda asarlariga oid tadqiqotlar ko'rinishida yuzga keldi.

Edgar Allan Po va o'zbek adabiyoti mavzuida maxsus fundamental tadqiqot ishi yaratilmagan bo'lsa-da, ayrim o'zbek ijodkorlari va olimlari o'z maqolalari orqali ma'lum ma'noda bu borada sa'y-harakatlar qilganlar. Vadud Mahmudning "Bu kungi she'rlarimiz va san'atkorlarimiz", Bahodir Karimovning "Vadud Mahmud haqida so'z", Muhammadjon Xolbekovning "Edgar Po va yulduz qismati", M.Yakubovning "Edgar Poning "Buyuk Temur" dostoni" nomli maqolalari "Buyuk Temur" majmuasidan o'rin olgan.

O'z navbatida faol va bilimdon adabiyotshunos va adabiy tanqidchi ham bo'lgan Edgar Poning adabiy-tanqidiy maqolalari bilan badiiy asarlari bir-birini to'ldiradigan vositalar hisoblanadi. U "Hikoyaning effekti" nomli maqolasida shunday yozadi: "... Ko'lamlil nasriy soha ichida faqat hikoya chin ma'noda bizning fikrimizcha, ulug' iste'dodning ro'yobga chiqishi uchun shubhasiz eng qulay imkoniyatlarga ega. Mabodo, bizdan daho o'zini qay tariqa butun borlig'icha ko'rsata oladi, deb so'rasalar, biz ikkilanmasdan, bir soatdan oshiq bo'lmagan vaqt davomida o'qiladigan qofiyali she'r-da, deb javob bergan bo'lar edik. Faqat mana shu doiradagina yuksak va chinakam she'riyat yashashga qodirdir. Bu yerda biz shuni aytishimiz kerakki, ijodning qariyb barcha ko'rinishlarida ta'sir yoxud taassurot borligi ulkan ahamiyatga ega. Ravshanki, bunday birlik bir o'qigandayoq idrok etish mumkin bo'lmagan asarga xos emas. Prozaning tabiatiga ko'ra, biz nasriy asarni poemaga nisbatan o'qishga qodirmiz" [6.71].

E.Po badiiy asarlar orasida, jumladan, nasriy tur tarkibida hikoya janri yozuvchi iste'dodini namoyish eta olish vositasi sifatida eng qulay ekanligini ta'kidlaganligi adabiy haqiqatga mos keladi. Chunki hikoya ham she'r kabi tez, qisqa muddatda o'qiladi. Ko'zlangan g'oya va badiiy joziba shunchalik tez ma'lum bo'ladi. E.Po bu bilan hali XIX asrdayoq taraqqiyot muhitida qisqalik, mo'jaz adabiy shakl badiiy asar fazilatlaridan biri ekanligini ta'kidlagan.

"Odatdagi roman hozir aytilgan sabablarga ko'ra, hajmi tufayli bunda qo'l kelmaydi. Negaki, romanni bir o'tirishda o'qib tugatish mumkin emas, u taassurotlar yaxlitligida yashiringan ulkan qudratli mahrum bo'ladi. O'qish davomida turmush tashvishlari ozmi-ko'pmi darajada kitobdan olingan taassurotni o'zgartiradi, o'tmaslashtiradi yoxud diqqatni chalg'itadi. O'qish paytidagi shunchaki tanaffus ham chinakam birlikka putur yetkazish uchun kifoya. Qisqa hikoyada esa muallif ijodiy niyatini, qanday bo'lishidan qat'i nazar, to'la ro'yobga chiqarish imkoniyatiga ega. O'qish davom etgan bir soat mobaynida kitobxon qalbi muallifning inon-ixtiyorida bo'ladi. U tashqi ta'sirlar – toliqish yoki to'sqinliklarga duchor bo'lmaydi" [6.172].

Bu yerda asarning qisqaligi, shu ma'noda hikoyaning effekti yanada batafsilroq tahlil etilgan. Badiiy asardagi obrazlar va g'oyalar talqini o'quvchining hayot haqidagi taassurotlarini o'zgartirishi, ya'ni, dunyoqarashini toblashi, qarashlarining, falsafiy mushohadalarining boyishiga ta'sir etishi esa badiiy asar mohiyatini yana bir qadar teran tushunish ahamiyatiga ega.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

E.Po hikoyanavislik tizimida o'zi aytmoqchi, badiiy asar gultoji deb muhim qisqalikning go'zal namunalariidan biri – "Sukunat" novellasi alohida ajralib turadi. Iste'dodli lirik yozuvchi va nozikdid adabiyotshunos Mahkam Mahmudov mahorat bilan tarjima qilgan mazkur asar nasriy nazm maqomidagi ranggin tasviri, iblis va odam o'rtasidagi munosabatlar talqini bilan e'tiborni tortadi.

"- Quloq sol, - dedi Iblis mehribonlik bilan qo'lini boshimga qo'yib, - men senga Liviyadagi bir huvillagan o'lka haqida gapirib bermoqchiman. Zaxira daryosi sohillarida yastangan bu o'lkada orom ham, sukunat ham yo'q.

Daryo suvi za'faron rangda, u dengizga qarab oqmaydi, ammo quyoshning alvon shafag'ida sarkash va asov mavjlanadi, tinimsiz po'rtanalari to'lg'anadi. Ikkala sohil bo'ylab, botqoqli o'zanda haybatli suv lolagullari ayqash-uyqash bo'lib yotadi. Kimsasizlikdan xo'rsinayotganday, lolalar ranglar tolma bo'inlarini ko'tarib, bir-birlariga qarab, bosh chayqashadi. Ular yerosti suvlarining shoviriga o'xshash allaqanday tushunuksiz bir ohangda shivirlayotganday tuyuladi, elas-elas xo'rsinishadi" [6.189].

"Huvillagan o'lka" – mohiyatan la'natlangan makon ma'nosiga ega. Bunday Liviyadagi huvillagan o'lkadagi oromsiz, sukunatsiz muhit misoli do'zax yoki do'zaxiy joy ma'nosini anglatganday bo'ladi. Boshdan-oyoq majoziy-ilohiy ruh bilan chulg'angan novella o'tkir hayajon,

ADABIYOTSHUNOSLIK

kuchli psixologik taassurot bilan mutolaa qilinadi. Daryo suvining za'faronligi va uning dengizga qarab oqmasligi – jamiyatdagi turg'unlik majozisi; buni barcha ashyoning jonsizligi, loqaydligi holatidan ham bilish mumkin. Suv lolagullarining ayqash-uyqash harakati, xo'rsinishi esa bunday tushkunlik va turg'unlik taassurotini yanada kuchaytiradi. Ularni xo'rsinishga, behuda to'lg'anishga majbur etayotgan nima, qanday qora kuch bo'lishi mumkinligi o'quvchini qiziqtirishi tabiiy. Bu Iblis qutqu solgan buzuq jamiyat, ezgulikdan ko'ra yovuzlik nafasi hukmron yurtning xarobatini, o'limga mahkum shum taqdirini anglatadi.

“Sukunat”dagi hikoyachi obrazi, Iblis, Qora bulut, zaxira daryosi, Sukunat, Lolagullar, Oy, Qoyada o'tirgan yolg'iz inson, Sirtlon kabi hayotiy va majoziy obrazlar asosan dramatik va tragik obrazlar hisoblanadi.

E.Po ko'p maqolalarida Amerikada san'atning, go'zallikning, ezgulikning, mehr-oqibatning qadri yo'qligi haqida o'tkir tanqidiy fikrlarini bayon qilgan edi. “Sukunat” novellasi ana shu ma'naviyati past yurt manzarasining majoziy ruhdagi taassurotini beradi:

“Qorong'i kecha edi, yomg'ir yog'ardi, yog'ayotganida yomg'ir edi, ammo daryoga tushganida qonga aylanardi. Bo'yodor suv lolalari o'chib yotgan jarlikda turardim, boshimga qonli yomg'ir yog'ardi, gullar ulug'vor xarobotdan xo'rsinib, bir-birlariga qarab, bosh chayqashadi.

Birdaniga harir tuman orasidan qonga belanganday alvon oy chiqdi. Oy yorug'ida sohildagi haybatli qora qoya ko'zimga tashlanadi. Qoya rangsiz, jonsiz, yuksak edi. Qoya rangsiz edi. Qoyaga allaqanday bitik o'yib yozilgandi. Suv lolalari chayqalib turgan jarlikdan suzib borib, tosh bitikni o'qish maqsadida sohilga yaqinlashdim. Lekin yozuvni o'qiyolmadim. Yana jarlikka qaytdim, oy bag'ri battar qonga belandi, men yana qoyaga qaradim va undagi yozuvni o'qidim: XAROBOT” [6.190].

Qon yomg'ir, qonga belangan oy yurt tushkunligi va zulm-zo'ravonlik, nohaqlik avj olgan zamon majozisi. Bunday xarobotlik talqinida bulutlar qoraga, suv qonga aylanishi tabiiy. Bu badbin va do'zaxiy muhit jonsiz va rangsiz shumshuk qoyadagi tushkun kayfiyatli odam siyosida o'z ifodasini topgan:

“Qoya cho'qqisiga qaradim, chetida bir odam urardi, men uning nima qilishini kuzatish uchun suv lolalari orasiga yashirindim. Inson qomatdor va ulug'vor edi, yelkasidan tovonigacha qadimgi rumo ridosiga burkangan edi. Uning jussasi elas-elas ko'rinar, ammo yuzidan nur yog'ilardi. Tun qorong'iligi, tuman va shabnamning harir pardalari uning chehrasini to'solmasdi; manglayi o'ylardan baland, nigohi tashvishlardan telbavash, peshonasidagi ajinlar yozuvi g'am-anduh, charchoq, horg'inlikdan so'zlar, bashar avlodlaridan ko'ngli qolgan va yolg'izlik qo'msagan qalb hikoyasini aytardi”.

Bu inson – burjuaziya nohaqliklari jabrini tortgan aziyatlar ichra dramatik va tragik obraz timsoli. Uning yuzidan nur yog'ilishiga qaramasdan qalbi pora-pora: “manglayi o'ylardan baland, nigohi tashvishlardan telbavash, peshonasidagi ajinlar yozuvi g'am-anduh, charchoq, horg'inlikdan so'zlaydi...”

Hikoyachi qoyadagi iztirob ichra o'tirgan insonni panada turib tomosha qilmoqda. Hatto suv oti – begemotni chaqirib, uni bu bechora abgor insonga bo'kirishga unaydi. Hikoyachi aziyatli, to'kilib turgan kishilarga dalda berish o'rniga uni hazil-mazah va haqorat qildirtiradi. Shu ma'noda “hikoyachi” o'ziga to'q va ermakka o'ch burjua vakili taassurotini beradi. “Inson yolg'izlikdan titrardi, tun oxirlab borar, u hamon qoyada o'tirar edi”, - deydi hikoyachi.

“Ana shunda men qahrilanib va borliqni, “Sukunatga bot!” – deb la'natladim; daryo va butlarni, shamol va o'rmonni, osmon va momoqaldiraqni, xo'rsinayotgan suv lolalarini sukunat nomi bilan, kunpayakun bo'l, deb la'natladim. Borliq la'natga uchradi va sukunatga cho'mdi. Oy osmon so'qmog'idan tirmashib chiqishini bas qildi, momoqaldiraqning uni, chaqmoqning olovi o'chdi, bulutlar harakatsiz osilib qoldi, toshqin o'z qirg'oqlariga qaytib toshday qotdi, daraxtlar chayqalishi to'xtadi, suv lolalari bir-birlariga bosh iring'amay, xo'rsinmay, shivirlamay qolishdi, ulkan, hayhotday, hududsiz sahroda g'ing degan tovush eshitilmay qoldi. Shunda men qoyaga qaradim va undagi “SUKUNAT” degan yozuvni o'qidim” [6.192].

Bu o'rinda deyarli barcha asarlarda osoyishtalik, go'zallik, xotirjamlik ramzi sifatida talqin etilgan sukunatga nisbatan antipatiya ruhidagi mazmun dastlab ajablantirishi ham mumkin. Ammo yozuvchining bu talqindan ko'zlagan maqsad-muddaosi har holda ijobiy xarakter tashishini tushunish ham talab etiladi. Hikoyachi “Ana shunda men qahrilanib va borliqni, “Sukunatga bot!”

deb la'natladim" deya, amirona da'vat qilar ekan, bu bilan dunyoni alg'ov-dalg'ovlikka chulg'agan bo'ronlarni, chaqmoqlarni, qon yomg'irlarni, og'ir va qora bulutlarni va umuman do'zaxiy vahmkorliklarni sukunatning osoyishta go'zalligi bilan tinchitganligini aytmoqda. YA'ni, shu tariqa do'zaxiylikni la'natlamoqda. Hayhotdek hududsiz sahroda g'ing degan tovushning eshitilmay qolganligi – bu alg'ov-dalg'ov vahmkor sharoitning barham topib, borlikni tinchlik-osudalik sukunati qoplaganligning alomatidir.

O'tkir mubolag'adorlik maqomida talqin etilgan romantik hodisalarning psixologik jozibasi bilan e'tiborni tortadigan "Sukunat" hikoyasida xarobotga Sukunatning qarama-qarshi (kontrast) qo'yilishi yozuvchi mansub ijtimoiy muhitda hukmron yovuzlik, notenglik, zulm ildiziga bolta urishga da'vat hisoblanadi. Salohiyatli yozuvchining bunday yuksak romantik-majoziy ruhdagi hikoyasi inson tafakkuriga kuch, joziba va o'tkir tanqidiy ko'lam bag'ishlaydi.

Edgar Poning hikoya janri haqidagi nazariy fikrlariga o'z asarlariga xos shakliy va g'oyaviy-majoziy fazilatlar ham dalil bo'ladi.

"Mohir adib hikoya yozdi. Agar u dono bo'lsa, fikrlarni voqealarga tiqishtirishga intilmaydi; o'zi erishishni istagan yagona effektini puxta o'ylab ko'rib, so'ngra voqealarni to'qiydi va o'sha voqealarni o'ylangan effektini ro'yobga chiqarishga ko'ngildagidek qulaylik yaratadigan tarzda uyg'unlashtiradi. Agar birinchi jumlayoq ana shu effekt sari boshlamasa, demak, yozuvchi avvalboshdanoq muvaffaqiyatsizlikka uchragan. Butun asarda ko'zlangan maqsadga bevosita yoki bivosita olib bormaydigan birorta so'z bo'lmasligi darkor. Pirovardida, o'quv bilan idrok etilib, imkon qadar to'la qoniqish hissi uyg'otadigan manzara ana shunday paxtalik va mohirlik bilan yaratiladi. Hikoyaning g'oyasi to'la ifodalanadi, chunki meyorini hech narsa buzmaydi" [6.173].

"Mohir adib"ning fikrlarini voqealarga tiqishtirishga intilmasligi – bu hikoyaning g'oyaviy-badiiy jihatdan anchayin ixcham, shu barobarda ta'sirchan bo'lishi lozimligi haqidagi maqsadni bildiradi. E.Poning o'z tajribasidan ham kelib chiqib, aytishicha, ana shunday ixchamlik asar meyorining mo'tadil bo'lishini, ifodalamoqchi bo'lgan g'oyasining to'la in'ikosini topishini ta'minlaydi. Ixchamlik, tasvir-talqinlarning siqiligi hikoyaning intellektuallik mohiyatini, tafakkur salmog'ini oshirishi adibning "Sukunat" va yana shunday mo'jaz hikoyalarda, o'zi aytganiday, ixcham novellalarida ham o'z tasdiqig'ini topgan.

"Biz hikoyaning hatto she'rdan ham ustunlik jihatlari bor, dedik. To'g'ri, she'rda bosh g'oyani – Go'zallik g'oyasini ifodalashda sho'irga ritm sezilarli yordam beradi, ammo fikrni tafsilotlari bilan rivojlantirishda ritmning sun'iyiligi g'ov bo'ladi. Hikoyada esa xuddi shu Haqiqat, ko'pincha va yuksak darajada maqsadni tashkil qiladi. Eng yaxshi hikoyalardan ayrimlari mantiqiy mulohazalardan iborat. Shu tariqa, bu turdagi asarlar sohasi Ruhning baland cho'qqilarida joylashmagan bo'lsa ham she'riy sohaga qaraganda kengroq maydonni, qir-u tepaliklarni ishg'ol etgan. Bu joylardan terib olinadigan mevalar u qadar laziz bo'lmasa-da, mo'l-ko'l va ko'pchilikning didiga ko'proq mosdir" [6.173].

Hikoya "fikrni tafsilotlari bilan rivojlantirishda" qulay vosita, ya'ni, tafakkur, muloqot, falsafiy mushohada maydoni ekanligini ta'kidlash bilan E.Po hikoyaning intellektuallik mohiyatini ta'kidlashi ma'lumdir.

Yana u hikoyalarning "mantiqiy mulohazalar" yuritish vositasi ekanligini alohida uqtirishi ham hikoya janri "effekti"ning muhim jihatlari belgilaydi.

Yuqoridagi fikrimizga asos sifatida "Qizil ajal niqobi" hikoyasini ko'rib chiqaylik. Hikoyaning yetakchi majoziy obrazi kutilmagan baland bo'yli, keng yelkali, boshdan-oyoq oq matoga burkangan noma'lum kishi obrazida namoyon bo'ladi. Bu noma'lum maqomdagi kishi o'zini Qizil ajal ko'rinishida his etishlarini istardi. Ammo uning yovuz niyati oq libosida ko'zga yaqqol tashlangan qon izlarida yuzidagi to'q qizil qon dog'ida o'zini namoyon etib turardi. Bu majoziy xarakterdagi qizil ajal ko'rishidagi dramatik obraz baland bo'yli Prospero bo'lib yashirgan o'tkir xanjari suyakli shahzodani halok qiladi va xanjar yaltillab qo'ldan tushib ketadi. Magik realizmga tayanilgan ushbu asardagi ko'zga tashlanmas qo'rqinchli qiyofa aslida tirik inson emas, oq libos ostidagi davrning Zulmat, Halokat va Qizil ajal hukmron bo'lgan burjua siyosatining timsoli edi.

XULOSA. E. Allan Po nasri, uning asarlarida ijtimoiy muhit va shaxs munosabatlari, ziddiyatlar, kurashlari, yo'qotish va topishlar hayotda boricha, kuchli psixologizm vositasida tasvirlanadi. Aytaylik, "Yurak gupuri"dagi chol, "Maxluq" hikoyasidagi majoziy Vabo timsoli – Maxluq, "Qizil ajal niqobi"da shahzoda Prospero, "Vabo qiroli" majoziy hikoyasida dengizchilar

ADABIYOTSHUNOSLIK

Daroz va uning oshnasi Xyu Qatron, "Mashhurlikning intihosi"da Robert Jons, "Qora mushuk"da qotil Er kabi dramatik obrazlar mavjud bo'lib, ularning o'zaro munosabat va to'qnashuvlarida davrning ijtimoiy-ma'naviy, axloqiy muammolari bor bo'y-basti bilan badiiy in'ikos etilgan.

Umuman olganda, psixologik tahlil, tafakkur ko'lami imkoniyatlarining kengligi, davrning ijtimoiy-siyosiy holatini ramziy tasvirlarda berilishi bilan E. Allan Po hikoyalari jahon adabiyotining nodir namunalari qatoridan o'rin oldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Зарубежная литература XIX века. Романтизм. Хрестоматия. Под редакцией Я.Н.Засурского. составители А.Ф.Головенченко, Н.П.Козлова, Б.И.Колесников. москва, «Просвещение», 1976. (Foreign literature of the XIX century. Romanticism. Chrestomatia. Edited by Ya. N. Zasurskogo. Composer A.F. Golovenchenko, N.P. Kozlova, B.I. Kolesnikov. Moscow, "Enlightenment.", 1976.)

2. Вадуд Махмуд. "Бу кунги шеърларимиз ва санъаткорларимиз. <https://ziyouz.uz/matbuot/jadid-matbuoti/vadud-mahmud-bu-kungi-sheerlarimiz-va-sanatkorlarimiz-1925/> (Wadud Mahmoud. "Today's poems and artists).

3. Баҳодир Каримов. Вадуд Махмуд ҳақида сўз. Китобда: Эдгар Аллан По. Буюк Темур. "Янги аср авлоди", Т.: 2016. (Bahadir Karimov. A word about Wadud Mahmud. In the book: Edgar Allan Poe. The Great Timur. "New century generation", Т.: 2016.)

4. Муҳаммаджон Холбеков. Эдгар По ва юлдуз қисмати. Китобда: Эдгар Аллан По. Буюк Темур. "Янги аср авлоди", Т.: 2016. (Muhammadjon Holbekov. Edgar Poe and stardom. In the book: Edgar Allan Poe. The Great Timur. "New century generation", Т.: 2016.)

5. М.Якубов. Эдгар Понинг "Буюк Темур" достони. Китобда: Эдгар Аллан По. Буюк Темур. "Янги аср авлоди", Т.: 2016. (М. Yakubov. "Temur the Great" epic by Edgar Poe. In the book: Edgar Allan Poe. The Great Timur. "New century generation", Т.: 2016.)